



1. Diduragay chatishtirish deb nimaga aytiladi?
2. Diduragay chatishtirishda Mendelning qaysi qonunlari yuzaga chiqadi?
3. Diduragay chatishtirishning ikkinchi bo'g'inida necha xil kombinatsiya amalga oshadi?
4. Diduragay chatishtirishning ikkinchi bo'g'inida fenotip va genotip jihatdan nisbat qanday bo'ladi?

51- §. 1- amaliy mashg'ulot. Diduragay chatishtirishga doir masalalar yechish

1. Pomidor mevasining yumaloq shakli (A) noksimon shakli (a) qizil rangi (B) sariq rangi (b) ustidan dominantlik qiladi. Quyi-dagi genotipli pomidorlar qanday gametalar hosil qiladi? a) AABb; b) AaBB; d) aaBB; e) AABb; f) AaBb; g) Aabb h) aabb.

2. G'o'zaning hosil shoxi cheklanmangan (S), gultojibarglari sariq-limon rangdagi (Y) formasi hosil shoxi cheklangan (s), gultojibarglari och-sariq rangli (y) formasi bilan chatishtirilganda, 1/4 qism cheklanmagan hosil shoxi, gultojibarglari sariq-limon rangli, 1/4 qism cheklangan hosil shoxi, gultojibarglari sariq-limon rangli, 1/4 qism cheklanmagan hosil shoxi, gultojibarglari och sariq rangli va 1/4 qism cheklangan hosil shoxi, gultojibarglari och sariq rangli o'simliklar olingan. Chatishtirishda ishtirok etgan ota-ona formalarining genotipini aniqlang.

3. No'xatning uzun poyali, oq gultojibargli formasi kalta poyali, qizil gultojibargli formasi bilan chatishtirilgan, F_1 da 120 ta uzun poyali, qizil gultojibargli, F_2 da 720 ta o'simlik hosil bo'ldi:

a) F_1 necha xil genotipga ega bo'ladi? b) F_1 necha xil gameta hosil qiladi? c) F_2 dagi o'simliklarning nechtasi uzun poyali, qizil gultojibargli bo'ladi? d) F_2 dagi o'simliklarning nechtasi uzun poyali, oq gultojibargli bo'ladi?

4. Tarvuzning mevasi yumaloq shakli uzunchoq shakli ustidan, yashil po'choqlisi chipor po'choqlisi ustidan dominantlik qiladi. Uning yumaloq chipor formasi bilan uzunchoq yashil formasi chatishtirilgan. F_1 da 120 ta, F_2 da 960 o'simlik hosil bo'ldi: